

This is not registered version of Total Dpc Converter

Tanqidiy adoga qo'yilgan xatirani, Uta D. Qamrovga qattiq berilgani, ko'pdan qog'oz qoralab kelayotgan bo'lsa-da, yozganlari matbuot yuzini ko'rmayotganidan nolibdi. "Siz asarni qanday yozasiz, shuni xat orqali bildirsangiz. Yo bo'lmasa, bevosita maslahat olish uchun huzuringizga borsammikin", debdi. Yozgan narsalaridan bir daftarini xatga ilova qilibdi. Adib, daftarini varaqlab o'tirdi-da, o'ylanib qoldi. Qaysi biri ma'qul: xat yozganimi yoki o'zini chaqirib maslahat berganimi? Yaxshisi, havaskor uzoq yo'l bosib ovora bo'lmay qo'ya qolsin, deb javob yozishga jazm qildi.

"... Hozir, ukajon, oshkoralik zamoni, xoh ishonning, xoh ishonmang, bor gapni dangal aytaveraman. Yozuvchilik bu xamirdan qil sug'urish yoki qaymoqqa patirni botirib yeyish emas. G'alva, tashvishdan qochmagan odamning ishi..."

Mana, qo'lga qalam tutding, deylik. Agar u oppoq qog'oz ustida silliqqina yuraqolsa-ku, xo'b-xo'b. Ruhing ko'tarilib, ko'zingga olam guliston ko'rinadi. Yozganlaringni muxlislaring paysalga solmay bosib chiqarishsa, o'zingni dunyoda hammadan omadli hisoblaysan. Yallama-yor aytib, oyoq o'yiniga tushvoring kelib qoladi. Biroq shu on yana yuraging po'killay boshlaydi. Tanqidchi shovvozlar bor, ular nima deyisharkin? Xudo yarlaqab ma'qullashsa, do'pping osmonda, ko'ngling tog'day ko'tarilgan, qilgan mehnating charchoqlari chiqib ketadi. Yozging va yana yozging keladi. Boshingda yangi o'y-fikrlar, voqealar g'ujg'on o'ynab, mani yoz, deb qistaydi, yangi qahramonlar o'z domiga tortadi. Olamga boshqatdan kelganday bo'lasan. Goho esa qahramonlarning boshiga og'ir mushkulliklar, kulfatlar tushib qolsa-chi? Ular bilan birgalashib qayg'urasan, yum-yum yig'laysan. Bunday kezda yaxshiki yoningda odam yo'q, agar bo'lganda turqingni ko'rib har xil gumonlarga borgan bo'lardi. Shu holda dastlab uchratadigan kishing, albatta, umr yo'ldoshing bo'ladi. U ahvolingdan yo'kulgisi qistaydi, yo erim aqldan ozdimi, deb cho'chib tushadi, Hatto "tez yordam" chaqirmoqchi bo'ladi. Sen uni arang bu yo'ldan qaytarib qolasan.

Yozuvchilik oson ish emas. Ha, ijod yo'lingga bastalik tushib, holingga maymunlar yig'laydi goho. Qo'shga qo'shilgan ho'kizga o'xshab stolga qapishasan-da, soatlab qaqqayganicha o'tirasan, qalaming qani qimirlasa. Ish yurishganda vaqt qanchalik g'izillasa, ish yurishmaganda kun imillab, soatlar taqa-taq to'xtagandek bo'ladi. Xonadagi og'ir sukunat go'yo yelkangdan botmon daxsar bo'lib bosayotganday, shu sukunat yukidan qutulish ilojini axtarib qolasan... Beixtiyor dilingni shubhalar qoplaydi.

Yozuvchiligingga ishonchsizlik ham ko'lanka tashlab o'tadi. Yo'q, deysan o'zingni qo'lga olib. Qalamni zo'r lab yurgizib ko'rasan. U asov xo'tikday bir yerda depsinib turaveradi. O'rningdan turib ketay desang, xuddi biron allanima deb ta'na-tova qilayotganday, o'zingni bosasan.

Birpas xayol tizginini o'z holiga qo'yvorasan. Derazadan tashqariga nazar tashlaysan, ehe... Tip-tiniq moviy osmonning bir parchasini to'sib turgan daraxtlar shovullashi, yam-yashil barglarda oltinday jimirlashib o'ynayotgan shu'lalar, shoxlardan-shoxlarga uchib-qo'nib yayrashayotgan qushchalar chiriq-chiriqu... Birdan qulfi diling ochilib, qalamga qo'l cho'zib qolasan. So'z ketidan so'z, jumla ketidan jumla selday shovullab keladi. Qarshingdagi qog'ozning yarimchasi qoralanadi-yu, shu bilan qalam xitlik qilib qoladi. Qayta-qayta chuhab yurgizvoray, miyangga tesha tegmagan fikr kelay deb turganda, nogahon qulog'ingga sur pashsha qo'nadi-yu, xayolingni qochirib, ishning beliga tepadi. Yangangiz bugungi gazetalarni tashlab ketganda, eshikdan xonaga pashshalar kirib qolgan ekan-da. "Men ijod qilayotganda eshikni ochmanglar, telefon uzib qo'yilsin, yong'in xavfi tug'ilgan taqdirda ham kaminani bezovta qilinmasin!" deb eslatilgan-ku, baribir foydasiz. Faromushxotirlik ham evi bilan-da! Xullasi, shap-shapni qo'lga olib, pashshalarni shapillatish boshlanadi. Moxovlarning urug'i ko'pligi-chi! Kattalarini qirsang, endi uchirma bo'lgan duvaraklari hujumga o'tadi.

Ko'p urinish pirovardida pashshalar hujumidan qutulganday bo'lasan-u, biroq ilhom parisi pir etib noma'lum yoqqa uchib ketgani yomon bo'ladi. Miyada hosil bo'lgan sahroday bo'shliqni endi nima bilan to'ldirasan, ilhom parisi qaytib kelarmikan-a? Qaytib keladi, deysan o'zingga dalda berib. Vaqtincha bo'lsa-da, bo'shliqni to'ldirib turish uchun qandaydir ovunchoq, anchayin bahona axtarib qolasan. Qo'lingga yangi gazetalarni olib varaqlashga tushasan. Bugungilarida ham o'qiydigan oldi-qochdilar ko'pga o'xshaydi.

Yo'q, ukajon, bu so'zlarimdan ajablanmang, meni mabodo asabiyligidami, injiqlikdami ayblay ko'rmang. Ijod ishining bo'gan-turgani shunaqa nozik. Xiyol narsa - uzoqdan keladigan vertolyot gumbirimi, bolalar uchirayotgan varrak dirillashimi, chumchuqlar chirillashimi, hammasi ta'sir etaveradi. Ijodchi o'zini qil ustida turganday yoki yakka cho'pdan o'tayotganday his etadi. Sal toydimi tamom - pishib kelayotgan xayol qozoni ag'dar-to'ntar bo'ladi. Qozonni boshqattadan masalliqa to'ldirib, o'choqqa olovni yangidan yoqish kerak bo'ladi.

Aziz ukajon, javob xatim cho'zilgan bo'lsa, uzr. Uni shu yerda to'xtatib, dil-dilimdan aytgim keladi. Yigit kishiga yetmish hunar oz, deyдилar. Boshqa hunaringiz bo'lsa, o'shandan qolmaganingiz ma'qulmikan, deymen. Yana o'zingiz bilasiz..."

Havaskor o'rtoq xatimni olishi bilanoq, javob yozishga shoshilibdi: "Qalamkashlikning sirlarini menga oshkora qilganingiz uchun tashakkurlar bo'lg'ay. Faqat "Ukajon" deb kamsitganingiz sal botdi. Negaki, siz janoblarini oynai jahonda necha bor ko'rganman. Chamamda, elliklar nari-berisidasiz. Kaminangizni bo'lsa, oltmishdan naryoqda deb bilasiz..."

Obbo, umrimda bir marta ijodiy maslahat beribman-u, shunda ham qovun tushiribman-da, a?